



MAKTABGACHA YOSHDAGI DUDUQLANUVCHI BOLALARDA NUTQIY NAFASNI RIVOJLANTIRUVCHI MASHQLAR

Xayitgul Nesibovna Muzaffarova

f.f.d (PhD) Maxsus pedagogika kafedrasи

Abdulhamidova Nazokat

JDPU IV- bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha turli yoshdagи duduqlanuvchi bolalar bilan olib boriladi nutqiy nafasni rivojlanirishga qaratilgan mashqlar va mashqlarning olib borish tartibi, mashqlardan tashqari nutqiy nafasni takomillashtirishga doir tavsiyalar haqida fikr- mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Didaktik o'yinlar, haraktli o'yinlar, shivirlab gapirishga qaratilgan o'yinlar, dramatizatsiyalashtirilgan o'yinlar, qo'shiq aytish bilan olib boriladigan o'yinlar, sportga aloqador harakatli o'yinlar.

Annotation: The article describes exercises aimed at the development of speech breathing with stuttering children of different ages before school and the order of conducting exercises, as well as recommendations for improving speech breathing in addition to exercises.

Ключевые слова. Диадактические игры, подвижные игры, шепотные игры, театрализованные игры, поющие игры, спортивные подвижные игры.

Maktabgacha yoshdagи bolalarni yosh darajalari turlicha, shunga ko'ra ular bilan olib boriladigan mashg'ulotlarni turi va darajalari ham turlicha bo'ladi. Misol uchun 3 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalar bolalarda o'yin turining sodda ko'rinishlari o'ynaladi, 5-7 yoshli duduqlanuvchi bolalar bilan olib boriladigan o'yinlar esa bir muncha murakkabroq tusda bo'ladi. Bunaqa bolalar bilan o'yinlar asosan guruhli tarzda olib boriladi. Ba'zan esa bola yakka o'zi o'ynashni xohlaydi.

Duduqlanuvchi bolalar bilan nafas harakatlarini to'g'ri nafas olish va chiqarish jarayonlarini yo'lga qo'yish bilan shug'ullanganda eng avvalo, bolaning umumiy holatiga, yoshiga, mashqni bajara olish darajasiga alohida e'tibor qaratamiz. Nafas olish va chiqarish vaqtida bola mashg'ulotdan charchagan vaqtida mashg'ulot boshqa vazifa turlari bilan almashtirilgan holda olib borilishi mumkin. Nafas harakatlarini uzluksiz davom ettirish ham bolada nojo'ya ta'sirlarga sababchi bo'lishi mumkin. Misol uchun: bolada bosh aylanishi, ko'ngil aynishi, umumiy holsizlik holatlarini kuzatishimiz mumkin, shuning uchun bola bilan nafas harakatlarini rivojlanirishga qaratilgan o'yinlar ketma – ket bir yoki ikki daqiqadan ko'proq vaqt davomida intensiv ravishda bajarish yaxshiroqdir. Ko'pgina mashqlarda, bola va puflanayotgan narsalar va lablar o'rtasidagi masofa 30 – 40 sm masofada bo'lishi kerak bo'ladi. Vazifalarni bajarish vaqtida bolaning yelkalari ko'tarilmasligi, bola faqat qorin qismiga nafas olish



va chiqarish harakatlarini amalga oshirishi kerak bo'ladi. Havo oqimi bir xil, kuchli va yo'naltirilgan bo'lib, kamida 5 soniya davom etadi.

Nafas chiqarish jarayonida havo oqimi bir vaqtning o'zida tovush hosil qiluvchi va artikulyatsion vazifani bajaradi. To'g'ri nutqiy nafasni nazorat qilish qilish jarayonida qo'limiz yordamchi vazifani bajaradi. Bunda qo'llarimizni diafragma qismiga, ya'ni ko'krak qafasi va qorin oralig'i qismiga qo'yiladi. Nafas olganda qorin devori ko'tariladi, ko'krak qafasining pastki qismi esa kengayadi. Nafas chiqarish vaqtida esa ko'krak qafasi va qorin mushaklari qisqaradi. Nutqiy nafasda nafas olish qisqa va yengil darjada, nafas chiqarish holati esa uzoq va davomiy holatda bo'ladi. Duduqlanuvchi bolalarni biz bir nafasda gapirishga, nafasni to'xtatga holatda gapirmaslikka o'rgatiladi. Nafas olishni mashq qilish jarayonida keyingi nafas olish vaqtida avval 2 sekund tanaffus qilish ham lozimdir. Har doim topshiriqlar davomiylig vaqtida yengildan asta-sekin tarzda murakkablashgan holatda olib boriladi. Nafas mashqlari hamisha toza havo yetrali bo'lgan, kislorodga to'yingan holda, keyin esa bolani juda qorni to'q holatda ham, och holatda ham bo'limgan holda mashq qildirishimiz kerak bo'ladi. Dastavval nutqiy nafas chiqarish ma'lum bir tovushlar orqali, so'ngra so'zlar, qisqa tazrdagi jumlalar, keyinchalik esa she'rlar aytishlar orqali mashq qilinib boriladi.

Bolalar bilan nutqiy nafasni rivojlantirishga oid o'yin turlariga bir qancha o'yinlarni kiritishimiz mumkin: didaktik o'yinlar, haraktli o'yinlar, shivirlab gapirishga qaratilgan o'yinlar, dramatizatsiyalashtirilgan o'yinlar, qo'shiq aytish bilan olib boriladigan o'yinlar, sportga aloqador harakatli o'yinlar va boshqalar. Biz logoped sifatida nutqiy nafasni rivojlantirish uchun bu o'yin turlarini faqatgina bittasidan foydalanib qolmasdan, barcha turdag'i o'yinlardan keng foydalanamiz. Bolaga nuqul bitta turdag'i o'yinni o'ynataversak bola nima qiladi, zerikadi bergen topshiriqni bajarmaydi. Shuning uchun logoped yaratuvchan bo'lishi kerak, bolalarga har safar turlicha o'yin turlarini ko'rsatishi kerak.

Bunaqa o'yinlardan bir nechtasini misol qilib oladigan bo'lsak: Rangli yomg'ir o'yini: gorizontal holatda osilgan bir qancha rangdagi mato parchalari yoki rangli lentalardan foydalanib ularni mahkamlaymiz. Ipni bolaning yuzi oldiga 10-15 sm masofa qoldirib osib qo'yiladi. Bolaga osilgan lentalarni puflash talab qilinadi. Keyin esa bola nafas chiqarish jarayonida, ma'lum bir rangdagi lentani boshqasidan ko'ra ko'proq siljitishi aytildi, vazifani sekinlik bilan bitta lentani emas ikki, uchta rangli lentalarni joyidan siljitishi bilan, mashq murakkablashtirib boriladi. Shu bilan birga, bolaning tekis turishiga va puflab turishiga ishonch hosil qilish kerak bo'ladi. Bunaqa o'yinlarni o'ylab topish qiyinchilik tug'dirmaydi, bunaqa mashqlarni yana bir nechtasini aytib o'tish mumkin: foydalanish mumkin suvlardan; suvga sharchalarni, qayiqchalarni tashlab ularnni harakatlantirish uchun lablaridan yoki turbichkalardan foydalanish, paxta momoqchalaridan; ularni stolni ustiga qo'yib, bolani burnini ustiga qo'yib puflashni taklif qilish orqali, qog'ozlardan; bolani o'ziga o'zining harakat motorikalarini birga rivojlantirgan holda, ijodkorlik qilib unga turlicha gullar, qushlar,



kapalaklar yasab, kesib olib uchirish bilan bog'liq mashqlar kabilardan foydalanishimiz mumkin bo'ladi. Bu bola uchun ham qiziqarli ham foydali bo'ladi.

"Rangli yo'llar" o'yini.

O'yindan maqsad: bolani to'g'ri nasaf olishga o'rgatish, nafas olish ko'nikmalarini shakllantirish. O'yinning borishi: Bolalarni ikki guruhga ajratamiz. Logoped bolalarga ko'rsatma beradi. Start chizig'i chiziladi, oxiriga esa finish chizig'i chiziladi. Bolajonlarni ikki tomoniga guash yoki boshqa rangli bo'yoq bilan to'ldirilgan idish va trubichkalar qo'yiladi, ular idishga sharikchalarini botirib olib keyin start chizig'idan musobaqalarini boshlashadi. O'yin finishiga qaysi bola sharni birinchi bo'lib puflab yetkazib borsa, o'sha jamoa g'olib hisoblanadi. Navbatni keyingi ishtirokchi oladi. O'yin izchillikni, tezkorlik va aniqlikni talab qiladi. Shu bilan birga nafasni to'g'ri taqsimlash muhim hisoblanadi.

Bundan tashqari bolalar bilan faqatgina nafas olish va chiqarish bilan ish olib bormasdan relaksatsiya mashqlaridan ham keng miqyosda foydalanishimiz mumkin. Bu relaksatsiya mashqlari bolada harakatlar uyg'unligida ham nafas olish va chiqarishni me'yoriy holatini ta'minlashga yordam beradi.

Logopedik mashg'ulotlarning nutq materiali mazmuni buzilishning tuzilishiga, yoshga, duduqlanuvchilar guruhiga, duduqlanishning o'tib borishiga, duduqlanuvchining o'z nuqsoniga bo'lgan munosabatiga va boshqa ko'pgina omillarga bog'liq holda o'zgartiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muzaffarova X.N. Pedagogical possibilities of organizing professional practice of students of preschool speech therapy// International Congress on Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences Bilbao, Spain: March 27th, 2022. conferencezone.org. 312—314

2. Muzaffarva X.N. Maktabgacha logopediyani o'qitish metodikasi bo'yicha didaktik va motivatsion imkoniyatlarni takomillashtirish modeli// J. Bola va zamon — 2022. — №3. — B. 19— 23.

3. Muzaffarova X.N. Bolalarda nutq buzilishlari va ularga korreksion yondoshish usullari // J. Tafakkur ziyosi — 2020. — №1. — B. 153-155.

4. Muzaffarova X.N. Maktabgacha logopediyani o'qitish metodikasi bo'yicha nazariy mashg'ulotlarni tashkil etish texnologiyalari// J. O'zbekiston milliy universiteti xabarlari —2022. —№ 8/1—B.152-156

5. Muzaffarova X.N. Maktabgacha logopediyani o'qitish metodikasida logoped o'qituvchilarining kasbiy mahoratini shakllantirish yo'llari//J. "Mug'allim həm yzliksiz bilimlendirir" Nekis" —2022, —№4/1. — B. 119—124

6. Muzaffarova X.N. Maktabgacha ta'lim muassasasi mashg'ulotlar jarayonida o'yin faoliyatidan foydalanishning pedagogik ahamiyati// Maktabgacha yoshdagи bolalar ta'lim tarbiyasini takomillashtirish muammo va yechimlari:



Respublika ilmiy amaliy anjumanining maqolalar to'plami. —Jizzax, 2016. 145-149 b

7. Muzaffarova X.N. Pedagogik texnologiyalar va ularni maxsus ta'lif muddasalariga tadbiq etish // Respublika ilmiy-nazariy anjuman materiallari 1bo'lim. Nekis, — 2018. 127-130 b

8. Muzaffarova X.N. Ta'lif - tarbiya jarayonida innovatsion usullardan foydalanishda o'qituvchining mahorati// Pedagogikaning dolzARB muammo va yechimlari Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari —Jizzax, 2021-№ 3. 99-103 b

9. Muzaffarova X.N., O'qitish jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalalari // J. Bola va zamon — 2019. —№2. B. 57- 62

10. Muzaffarova X.N. O'zbekistonda bakalavr pedagoglarni tayyorlashning innovatsion modellari // Psycho - pedagogical problems of a personality and social interaction : materials of the VII inter national scientific conference: Tez. dokl. — T., 2016. 151-153 b

11. Muzaffarova X.N., Maktabgacha logopediya., O'quv qo'llanma//:Jizzax: «Ruhsora servis» nashryoti, 2021, 4-20 b.

12. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=2o5joasAAAAJ&citation_for_view=2o5joasAAAAJ:u-x6o8ySG0sC

13. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=2o5joasAAAAJ&citation_for_view=2o5joasAAAAJ:kNdYIx-mwKoC.

14. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=2o5joasAAAAJ&citation_for_view=2o5joasAAAAJ:Y0wf2qJgpHMC.

15. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=2o5joasAAAAJ&citation_for_view=2o5joasAAAAJ:zYLM7Y9cAGgC.